

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ATADJANOVA SHAXNOZ ABBASOVNA

**NOFILOLOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING
KASBIY MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI
(fransuz tili misolida)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of the abstract of doctoral (DSc) dissertation

Atadjanova Shaxnoz Abbasovna

Nofilologik oliy talim muassasalari talabalarida bolajak kasbiy malakalarni rivojlantirish texnologiyalari (fransuz tili misolida)3

Атаджанова Шахноз Аббасовна

Технологии развитие профессиональных навыков студентов в нефилологических вузах (на примере французского языка)34

Atadjanova Shaxnoz Abbasovna

The technology of developing the professional skills of students in non-linguistic higher educational institutions (on the example of the French language)70

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ
List of published works76

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ATADJANOVA SHAXNOZ ABBASOVNA

**NOFILOLOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING
KASBIY MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI
(fransuz tili misolida)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2022.1.DSc/Ped15 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Abdullaeva Barno Sayfutdinovna**
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Xakimova Muxabbat Fayzievna**
pedagogika fanlari doktori, professor
Yakubov Jamoliddin Abduvalievich
filologiya fanlari doktori, professor
Jumanazarov Umid Umirzoqovich
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Qo'qon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "___" _____soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi 27 uy. Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-80-86; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi 27 uy. tel(+99871) 254-92-02; faks: (+99871) 215-54-20.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "___" _____kuni tarqatildi.

2023 yil "___" _____dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi.

Z.N.Mamarajabova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, p.f.d., prof.
R.G.Isyanov
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, p.f.n., dotsent

S.S.Bulatov
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, p.f.d., prof.

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon oliy o'quv yurtlarida ta'lim mazmuni va sifatini yaxshilashda modellar joriy etilmoqda. Talabalarda nutq ko'nikmalarini shakllantirishning yangi modellarini joriy etish, chet tilida professional darajada muloqot qilish uchun yetarli bilimlar to'plamini o'zlashtirish uchun axborot qidirish ko'nikmalarini oshirish hamda o'quv jarayoniga o'qitishning innovatsion usullaridan foydalanib o'quv jarayoniga yondashish nofilologik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarining chet tilidagi nutqini kelajakda egallanadigan kasbiy faoliyatida pedagogik, psixologik va didaktik jihatdan o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahonning rivojlangan mamlakatlari AQSh, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Gollandiya, Belgiya, Shveysariya, Janubiy Koreya, Xitoy nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarining umummadaniy bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, o'zga tilli leksikani o'zlashtirishning nazariy asoslarini tadqiq qilish hamda davlatlarning millatlararo kommunikatsiyasi, davlatlararo aloqalarining yetakchi vositalaridan biri sifatida xorij tilini o'rganishni xalqaro standartlar darajasida olib chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Nofilologik oliy ta'lim muassasalaridagi bo'lajak mutaxassislar (kimyo, biologiya, geografiya, muxandis va boshqalar)ning nutq kompetensiyalari sohaga yo'naltirilgan matnlarni tuzish va talqin qilishda mos strategiyalardan foydalanish va o'qish, yozish, tinglash, gapirish kabi to'rtta asosiy nutq faoliyatlarini o'zlashtirish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha ham ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda ta'lim tizimida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilib, innovatsion faoliyat, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlari takomillashtirish, chet tillarini, jumladan ingliz, fransuz, ispan, xitoy tillarini o'rganish uchun ta'lim tizimini isloh qilishning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "halqaro ta'lim standartlarni joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish va o'qitish sifatini baholash hamda bu orqali oliy o'quv yurtlarining sifati va samaradorligini oshirish¹" muhim ustuvor vazifalar sifatida ko'rsatilgan. Yangilanayotgan O'zbekistonda yangicha fikrlaydigan, iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shuvchi, raqobatbardosh yetuk mutaxassislar yetishtirishdek umummadaniy kompetensiyalarni egallagan shaxsiy va maxsus professional malakalarni bo'lajak kasbiy malakalari bilan uyg'un holatda o'z faoliyatida qo'llay oladigan zamonaviy kadrlarni yetkazish imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 -2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" hamda 2020 yil 6 noyabr PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari; 2020 yilning 27 fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4623-son qarorlari, 2021 yil 19 maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risidagi"

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi « O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida »gi PF-4947-son farmoninig 4.4 band / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 20.08.2018 y., 33-son

PQ-5117son, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 avgustdagi “Chet tillarni o‘qitish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 610-son qarorida ko‘rsatib o‘tilgan topshiriqlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladigan vazifalar ijrosini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlari sharhi¹. No-filologik oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan Université de Poitiers (Fransiya), Centre of increasing to pedagogical qualification on base manchesters university (Angliya), Massachussetts institute of Technology (AQSh), University of Freiburg (Germaniya), Belfield pedagogical university (Germaniya), Association for Educational Communication and Technologie -AECT (AQSh), Chunang universiteti, Sankt-Peterburg, Moskva davlat pedagogika universiteti (Rossiya), O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda. Oliy ta‘lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy malakalarini rivojlantirish bo‘yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida bir qator ilmiy natijalar olingan. Jumladan talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqishda halqaro hamkorlikni amalga oshirishning tashkiliy va strategik mexanizmlari takomillashtirilgan (Association for educational Communication and Technologie -AECT); bo‘lajak mutaxassisning kasbiy mahorotini rivojlantirishning tashkiliy tuzilmasi yaratilgan (Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university); talabalarni kasbiy rivojlantirishning loyihaviy-konstruktiv texnologiyalari ishlab chiqilgan (Shonbuk National University -Janubiy Koreya); bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-shaxsiy rivojlantirishning pedagogik tizimi ishlab chiqilgan (O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti).

Yetakchi ilmiy markazlarda quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: Talabalarning kasbga yo‘naltirilgan og‘zaki nutqini rivojlantirish o‘yinlar vositasida unumli foydalanish hamda ularning lingvistik malakalarini yaxlit rivojlantirish (Alliance française); (the English language centre); o‘rganilayotgan til ta‘limi jarayonida o‘sha davlatning madaniyatini o‘rganish va dunyoni mantiqiy anglashga yo‘naltirishga xizmat qiluvchi anglotsentristlik yondashuv ishlab chiqish; Talabalarning kasbga yo‘naltirilgan og‘zaki nutqini rivojlantirishda o‘yinlar vositasida unumli foydalanish hamda ularning lingvistik malakalarini yaxlit rivojlantirish sama-

¹ Canale M, Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second languages teaching and testing / M.Canale, M. Swain// Applied Linguistics. – 1980- № 1 –P. 1-47; D.Coste, B.North, J.Garniture. Cadre Européen Commun de référence pour les langues: Apprendre, Enseigner, Évaluer: Unité des politiques linguistiques // Conseil de l'Europe/ - Chapitre 6 / - Strasbourg, 2001. Disponible en ligne: http://www.coe.int/t/dg4/Linguistic/Source/CEFR_FR.PDF. B. Professional competence and the initial and continuing education of NSW TAFE teachers. Sydney : Research Centre . 1995. C.18. <https://files.eric.ed.gov/fulltext/ed391017.pdf>; T.Hutchinson, A. Waters English for specific purposes. Alearning-centeredapproach. – Cambridge: CambridgeUniversityPress, 1986. –183p.

radorligi ta'minlash (Alliance française); (the English language centre); o'rganilayotgan til ta'limi jarayonida o'sha davlatning madaniyatini o'rganishdan tashqari shuningdek ta'limiy maqsadini dunyoni mantiqiy anglashga yo'naltirishga xizmat qiluvchi anglotsentristlik yondashuvishlab chiqish (Oxford university).

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ta'limni intensivlashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oliy o'quv yurtlari o'quv jarayonida qo'llash B.S.Abdullayeva, N.N.Azizxodjayeva, V.I.Andriyanova, R.X.Djurayev, R.G.Isyanov, Z.K.Ismoilova, N.A.Muslimov, O'.Tolipovlar; bo'lajak mutaxassislarning kasbiy bilimlarini shakllantirish va takomillashtirish jihatlari, xalqaro talablar asosida chet tillarni o'qitishni hamda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy mahoratlarini rivojlantirish A.Abdulazizov, Z.Abdujabbarova, L.T.Ahmedova, G.Boqiyeva, J.J.Jalolov, F.Ikramxanova, G.Mahkamova, S.Misirov, F.Rashidova, X.Saynazarov, T.Sattarov, D.R.Xoshimova, J.A.Yakubovlar1 tomonidan tadqiq etilgan.

MDH olimlaridan chet til ta'limini metodik jihatdan o'rganish N.D.Galskova, M.V.Lyaxovitskiy, G.I.Rogova, R.K.Min'yar-Beloruhev, K.I.Salomatov, Ye.N.Solovova, L.V.Shcherba, chet til o'qitishning pedagogik psixologik tomonlari I.A.Zimnyaya, A.A.Leontevlarning² ilmiy ishlarida keng yoritib berilgan

Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlardagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolida) :Ped.fan.d-ri ..dis.Avtoref.-T.,2004.; **Азизходжаева Н.Н.** Педагогик технология ва педагогик махорат. – Т., 2003. – 174 б. **Андрянова В.И.** К постановке проблемы. Взаимообусловленность личности педагога и обучающегося: Учебное пособие // Формирование личности обучающегося в условиях инновационных технологий / Под общ. ред. проф. Джураева Р.Х.; отв. ред. проф. В.И.Андрянова В.И. Ташкент, 2009. – 488 с. ; **Джураев Р.Х.** Ведущие тенденции образования в XXI веке // Uzluksiz ta'lim. –Toshkent.–2008.–№6. –С.35-41. [URL:<http://rpedagogy.ru/journal/article/1327/>]; **Isyanov R.G** va b. Oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish texnologiyalari. Monografiya. -Toshkent, 2011. 72 b; **Исмаилова З.К.**Талабаларнинг касбий-педагогик малакаларини шакллантириш: Пед. фан. ном. ... дис. – Т., 2000. -130 б.; **Muslimov N.A.** Kasb ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dokt. ... dis. –T, 2007. – 305 b.; **Tolipov O' Q.** Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. T-2004. Dis - 272 bet.;**Абдуазизов А.А.**, Зализняк А. М., Щитка Н. Н Учебное пособие для студентов филологических факультетов Ташкент- 2001; **Абдужаббаров З.Р.** Касб- хунар коллежлари ўқувчиларига инглиз тилида кўшимча матнлар ўқитиш технологияси . Пед. фан. ном. ... дис. – Т.: ТДПУ, 2010. – 179 б.; **Ахмедова Л.Т.** Роль и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов. –Т.: Фан ва технология. –2009. -159с;**Бакиева Г.** Современная концепция узбекской речевой культуры Междисциплинарный научный журнал «Общество и инновации» Выпуск 1 № 2, 2020.; **Jalolov J.J.** Chet til oqitish metodikasi.-T.: Oqituvchi, 2012. – 432 b.; **Икромхонова Ф.И.** Инглиз тилидан коммуникатив –когнитив корректив курс назарияси ва амалиёти (нолисоний олий ўқув юртлари мисолида): Пед. фан. ном. ... дис. – Т.: ТДПУ, 2012. – 198 б.; **Махкамова Г.Т.** «Формирование межкультурной компетенции студентов филологического ВУЗА (английский язык)» Дис. ... док..пед.наук. –Т.: УзГУМЯ, 2011.; **Мисиров С.** Касб-хунар коллежларида инглиз тили ўқитишнинг лингводидактик асослари: Пед. фан. ном. ... дис. – Т.: ЎзДЖТУ, 2007. – 179 б.; **Рашидова Ф.М.** Ўзбекистон узлуksiz таълим тизимида CEFRни татбиқ этишнинг концептуал методик асосларини такомиллаштириш (инглиз тили мисолида) Автореферат пед.фан. доктори (DSc). –Т.,2017.; **Сайназаров Х.** Общее и частное в методике обучения иностранным языкам // Тезисы докладов и сообщений Республиканской научно – методической конференции по теории и методике преподавания иностранных языков в средних школах, высших и средних педагогических заведениях. – Т., 1980. – С. 196-197.; **Саттаров Т.К** Мутахассислик бўйича амалий машгулотларда бўлажак чет тили муаллимнинг касбий-услубий малакаларини шакллантириш. (инглиз тили материалида): Пед. фан. докт. ... дис. – Т.: ЎзДЖТУ, 2000. – 421 б.; **Хошимова Д.Р** “Талабаларда инглиз тилидаги хиссий-экспрессив нутқни мнемоник база асосида тезкор ўстириш методикаси” Диссертация (2021й); **Якубов Ж.А.** Хозирги замон чет тили ўқитиш методикаси тамоиллари ва уларнинг замонавий таълим усуллари.//Чет тилларни ўқитиш ва ўрганиш муаммолари //ТДПУ . 2006 йил 30 май.;

Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам: Пособие для учителя. – М.: АРКТИ, 2000. – 165 с.; **Ляховицкий М.В.**Методика преподавания иностранных языков.-М.: Высшая школа,1981.-160с.; **Пассов Е.И.** Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению: Пособие для учителей иностранного языка. <https://lfirmal.com/principy-kommunikativnogo-obucheniya/>; **Рогова Г.В** Технология обучения иностранным языкам // Иностранные языки в школе. - 1976. – № 2. С. 75.; **Миньяр-Белоручев Р.К.** Методика обучения французскому языку. –М.: Просвещение, 1990. – 224 с.;**Саломатов К.И.**Методика профессионально-направленного обучения иностранному языку как педагогической специальности. с. <https://search.rsl.ru/ru/record/01001229309>; **Соловова Е.Н.**Интегративно-рефлексивный подход к формированию методической компетенции преподавателя иностранного языка в системе непрерывного профессионального образования: Автореф. Дис. ... д-ра пед. наук. –М., 2004. – 44 с.; **Щерба. Л.В.**

Kommunikativ kompetensiyaning nazariy tadqiqotlari R.P.Milrud, V.V.Safonova, kommunikativ va faoliyatli yondashuv, kasbga yo‘naltirilgan muloqot masalalari A.A.Verbitskiy, Passov Ye.I. L.K.Salnayalar tomonidan o‘rganilgan. Pedagogik hodisalar, jarayonlar va ob‘ektlarni o‘rganishga sotsiomadaniy yondashuv nazariyalari V.V.Krayevskiy, V.Safonova, S.G.Ter-Minasova, A.V.Xutorskiy, lingvistik va kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasi A.K.Krupchenko, S.M.Kashuk, T.A.Dmitrenko, **I.ZBorisova¹**lar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy tadqiqotlar tajribasida olimlaridan T.Hutchinson, A.Waters, R.L.Oxford, Nina Grapa, D.W. Johnson, P.F.Trembley, M.Canal, M.Swain, S.Brumfit, C.Chappell, V.Melville²lar tilni o‘qitishda madaniy yondashuvlarning integratsiyasi masalasi .mutaxassislarning kasbiy kompetensiya masalalari, kasbiy yo‘naltirilgan muloqotni rivojlantirish muammolari hamda til ta‘limining turli aspektlari bo‘yicha **tadqiqotlar** olib borishgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining PZ-20170923121 raqamli "ta'lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2017-2020 yy).

Преподавание иностранных языков в средней школе. Общие вопросы методики. 3-е изд. –М.: Академия, 2003. – 160 с.; **Зимняя И.А.** Психология обучения неродному языку. – М.: Рус. язык, 1989. – 219 с.; **Леонтьев А.А.** Деятельность. Сознание. Личность. <https://www.marxists.org/russkij/leontiev/1975/dyeyatelnost/deyatelnost-soznyanie-lichnost.pdf>.

Мильруд Р.П., Максимова И.Р. Современные концептуальные принципы коммуникативного обучения иностранным языкам // Иностранные языки в школе. – 2000. – № 4. – С. 9-15.; **Сафонова В.В.** Изучение языков международного общения в контексте диалога культур и цивилизаций. – Воронеж: Истоки, 1996. –237 с.; **Вербицкий А.А.,** Платонова Т.А. Формирование познавательной и профессиональной мотивации. – М., 1986.– С. 14.; **Пассов Е.И.** Коммуникативное иноязычное образование. –Липецк, 1998. – 159 с.; **Сальная Л.К.** Обучение профессионально-ориентированному иноязычному общению / Под ред. И.А.Цатуровой. – Таганрог: Изд-во ТТИ ЮФУ, 2009. – 198 с.; **Краевский В.В.** Методология педагогического исследования. – Самара: <https://sdo.mgaps.ru/books/K7/M4/file/2.pdf>;

Тер -Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. –М.: Изд-во МГУ.,2004.–С.252-256.; Хуторской, А.В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты / А.В. Хуторской // Интернет-журнал «Эйдос». – 2002. – Режим доступа: <http://www.eidos.ru/journal/2002/0423.htm> 105.; **Крупченко А.К.** Становление профессиональной лингводидактики как теоретико-методологическая проблема в профессиональном образовании: Автореф. дис. ... д-ра. пед.наук. – М., 2007.– 36 с.112//; **Кашук С.М.** “Методы обучения французскому языку как иностранному, разработанные во Франции” (2017й); **Дмитренко Т.А.** Профессионально-ориентированные технологии обучения в системе высшего педагогического образования (на материале преподавания иностранных языков): Дис. ... д-ра пед.наук. – М., 2004. -442 с.; **Борисова И.З.** “Обучение французскому языку на начальном этапе средней школы в условиях якутско-русского билингвизма» диссертация (2009й).

Nutchinson T., Waters A. English for specific purposes. A learning-centered approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. –183 p.; **Nutchinson T., A. Waters** ESP at the Crossroads // Episodes in ESP. A source and reference book on the development of English for Science and Technology. –New York: Prentice Hall, 1988. –P. 177-185.; **Oxford R.L.** Use of language learning strategies a synthesis of studies with implications for strategy training//Sustem. Oxford, 1989 –Vol. 17. – №2 –P.235-247., **Grapa Nina**, professeur de français, degré didactique supérieur, Lycée Théorique “ Mihai Eminescu”, Balti 2001. -56 p.;

Johnson D.W. Effects of cooperative competitive and individualistic goal structures on achievements: A meta-analysis // Psychological Bulletin 8. –P.47-62.; Trembley P.F., Gardner R.C.. Expanding the motivation construct in language learning. // Modern Language Journal, 79. –1995. –P.505-518.; Canale M, Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second languages teaching and testing / Canale M., Swain M. // Applied Linguistics. – 1980- № 1 –P. 1-47.; **Brumfit S.** Communicative Methodology in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 1992. –166r.; **Chappell C.Melville, B.** Professional competence and the initial and continuing education of NSW TAFE teachers. Sydney: Research Centre. 1995. C.18. <https://files.eric.ed.gov/fulltext/ed391017.pdf>; J. Richard, S. Rodjers /S/ Aprochhers and Methods in Language Teaching, London: Cambridge University Press.2001. 3dprinting 2002 in the United States of America.

Tadqiqotning maqsadi nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarida bo'lajak kasbiy malakalarni rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy malakalarni rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini aniqlash;

nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy malakalarni rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini aniqlash;

bo'lajak mutaxassislarining kasbiy malakalarini rivojlantirish mexanizmining perseptual funksiyalarini takomillashtirish; fransuz tilini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarning metakognitiv tarkibiy qismlarini takomillashtirish;

nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasbiy malakalarini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy malakalarning rivojlanganlik darajalarini tashxislovchi indikatorlarni takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy malakalarni rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Samarqand davlat universiteti, Qo'qon pedagogika institutlarining respodentlari jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy malakalarni rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish shakllari, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni(komparativ) qiyosiy-tanqidiy o'rganish, tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, sotsiometrik (suhbat, anketa, test, intervyu); pedagogik tashxis, tajriba-sinov, psixologik-pedagogik xodisalarning tizimli tahlili, monitoring, matematik statistik tahlil natijalarni umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasbiy malakalarini rivojlantirish imkoniyatlari kognitiv fikrlovchi mnemik faoliyat funksiyalari va metakognitiv tarkibiy qismlar mazmunini ta'limiy maqsad mazmuniga bosqichma-bosqich optimallashtirish hamda pragmatik faollashgan harakat va didaktik-rivojlantiruvchi o'yinlarni kiritishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

talabalarining kasbiy malakalarini rivojlantirish jarayoni fransuz tilini o'qitish jarayonida nutqiy kompetensiyalarni kommunikativ, leksik, innovatsion STREAM, STRATEGIC READINGS, BARCAMP, BASKETni qo'llash, sub'ektiv-pedagogik va ijtimoiy-psixologik motivlar hamda ehtiyojlar orasidagi o'zaro qayta aloqaga mo'ljallangan lokal infrastrukturani shakllantirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarining kasbiy malakalarini rivojlantirish samaradorligi fasilitatsion, Blend-up hamda kelgusi ko'p bosqichli jarayon faoliyati uchun binar, imitatsion, operatsion o'yinlarni loyihalashtirish, yangilikni izlash hamda ijodiy va tanqidiy fikrlashga, zamonaviy baholash texnologiyalariga qiziqtirish va mustaqil ishlash faolligini oshirishga qaratilgan kasb sharoitiga barqaror moslashtirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirish natijadorligi shaxs rezervini oshirish, o'qishga motivatsiya yaratish va assotsiativ fikrlovchi-mnemik faoliyatni kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatlarga optimallashtirish hamda tilni o'zlashtirish strategiyalarining kognitiv, emotsional, motivatsion komponentlarini og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning tashkiliy-mazmunli tuzilmasiga sinxron moslashtirish asosida takomillashtirgan;

talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirish mezonlari nutq faoliyati tarkibiy qismlari va gnostik, kollaborativ, konstruktiv metakompetensiyalar o'zaro adaptiv didaktik ta'sir imkoniyatlarini aniqlash hamda o'qituvchi va talabalar uchun mo'ljallangan ko'rsatmalar orqali interfaol breynstorming va tahliliy-faoliyatli mikromuhitni bosqichma-bosqich shakllantirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

bo'lajak mutaxassislarda kasbiy malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy tavsiflangan;

talabalarning kasbiy malakalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalarning metakognitiv (strim, strategik o'qishlar) tarkibiy qismlari (fasilitatsion, Blend-up) metodlar asosida takomillashtirilgan;

nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarida ilmiy-pedagogik, tarixiy-texnik, tizimlashtirish, umumlashtirish kabi metodik yondashuvlarga ustuvorlik berishga moslashtirilib, fransuz tilidagi nutq kompetensiyalarini rivojlantirish modeli takomillashtirilgan;

nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarida fransuz tilidagi nutq kompetensiyalarini rivojlantirish va kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha "Tezkor fransuz tili" nomli elektron trenajyor yaratish natijasida o'qituvchi va talabalarga mo'ljallangan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

nofilologik oliy ta'lim muassasalari pedagoglari uchun "Fransuz tili" darsligi nashr etilib, ta'lim jarayoniga tatbiq qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi rasmiy manbalardan olingan yondashuvlar, usullar va nazariy ma'lumotlardan foydalanish, matematik statistika usullaridan foydalangan holda eksperimental ish natijalarining asosiligi, ishlab chiqilgan didaktik materiallar, xulosalar va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi, vakolatli organlar tomonidan olingan natijalarning tasdiqlanishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati pedagogika fani nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarida bo'lajak kasbiy malakalarni rivojlantirishga oid ilmiy-pedagogik qarashlar, nazariy yondashuvlar bilan boyitildi. Shuningdek, bo'lajak mutaxassislarining kasbiy malakalarini rivojlantirish jarayonining mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, texnologiyalari, uni tashkil etish yo'llari, shakl va metodlari, ta'lim jarayonini tashkil etishga oid ilmiy-metodik tavsiyalardan ta'lim jarayonida foydalanildi. Nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarida bo'lajak kasbiy malakalarni rivojlantirishga mo'ljallab ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar asosida, ularning fransuz tilidagi nutq kompetensiyalarining uslubiy yondashuvlari va pedagogik shartlarini takomillashtirishga qaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati nazariy tahlillar natijasida olingan materiallardan "Tezkor fransuz tili" nomli elektron trenajyor ishlab chiqilganligi,

nofilologik oliy o'quv yurtlarida bo'lajak mutaxassislarining kasbiy malakalarini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan modeldan talabalarni boshqa yo'nalishlarda o'qitishda ham foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Dissertatsiya ishida ilmiy-amaliy asoslangan yondashuv va tavsiyalardan oliy ta'lim muassasalari talabalarida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy malakalarini rivojlantirish jarayonini tashkil etish, mazmunini boyitish, sifat va samaradorligini ta'minlash maqsadida nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarini uchun fransuz tili bo'yicha darsliklar, o'quv metodik majmualar hamda ularning kasbiy malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan yo'riqnomalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasbiy malakalarini rivojlantirish texnologiyalari bo'yicha olingan natijalar asosida:

nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasbiy malakalarini rivojlantirish imkoniyatlari kognitiv fikrlovchi mnemik faoliyat funksiyalari va metakognitiv tarkibiy qismlar mazmunini ta'limiy maqsad mazmuniga bosqichma-bosqich optimallashtirish hamda pragmatik faollashgan harakat va didaktik-rivojlantiruvchi o'yinlarni kiritishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Fransuz tili" darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-son buyrug'i asosida berilgan 302-0670 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarida bo'lajak kasbiy malakalarni rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini taxlil etishga erishilgan;

talabalarining kasbiy malakalarini rivojlantirish jarayoni fransuz tilini o'qitish jarayonida nutqiy kompetensiyalarni kommunikativ, leksik, innovatsion STREAM, STRATEGIC READINGS, BARCAMP, BASKETni qo'llash, sub'ektiv-pedagogik va ijtimoiy-psixologik motivlar hamda ehtiyojlar orasidagi o'zaro qayta aloqaga mo'ljallangan lokal infrastrukturani shakllantirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan A-1-197 raqamli «Ingliz va nemis tillarini o'rganish uchun o'quv-uslubiy modullarni takomillashtirish va ulardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari» nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022-yil 21-iyuldagi 02-07-1934/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilardan kasbiy kompetentligini rivojlantirishga pedagogik imkoniyatlari kengaytirilgan;

talabalarining kasbiy malakalarini rivojlantirish samaradorligi fasilitatsion, Blend-ap hamda kelgusi ko'p bosqichli jarayon faoliyati uchun binar, imitatsion, operatsion o'yinlarni loyihalashtirish, yangilikni izlash hamda ijodiy va tanqidiy fikrlashga, zamonaviy baholash texnologiyalariga qiziqtirish va mustaqil ishlash faolligini oshirishga qaratilgan kasb sharoitiga barqaror moslashtirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Fransuz tili" darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-son buyrug'i asosida berilgan 302-0670 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada bo'lajak mutaxassislarda fransuz tilini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarning metakognitiv tarkibiy qismlarini takomillashtirishga sharoit yaratilgan;

talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirish natijadorligi shaxs rezervini oshirish, o'qishga motivatsiya yaratish va assotsiativ fikrlovchi-mnemik faoliyatni kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatlarga optimallashtirish hamda tilni o'zlashtirish strategiyalarining kognitiv, emotsional, motivatsion komponentlarini og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning tashkiliy-mazmunli tuzilmasiga sinxron moslashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Fransuz tili" darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-son buyrug'i asosida berilgan 302-0670 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilardan kasbiy kompetentligini rivojlantirishga pedagogik imkoniyatlar kengaytirilgan;

talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirish mezonlari nutq faoliyati tarkibiy qismlari va gnostik, kollaborativ, konstruktiv metakompetensiyalar o'zaro adaptiv didaktik ta'sir imkoniyatlarini aniqlash hamda o'qituvchi va talabalar uchun mo'ljallangan ko'rsatmalar orqali interfaol breynstorming va tahliliy-faoliyatli mikromuhitni bosqichma-bosqich shakllantirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Fransuz tili" darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-son buyrug'i asosida berilgan 302-0670 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarida bo'lajak kasbiy malakalarning rivojlanganlik darajalarini tashxislovchi indikatorlarni takomillashtirish imkoni kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqotlari natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 30 ta ilmiy ishlar, xususan, 1ta monografiya, doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 23 ta maqola, shulardan 16 tasi respublika, 7 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: dissertatsiya ishi kirish, to'rt bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 212 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishinig ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obekt va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy malakalarini rivojlantirish texnologiyalarining nazariy konseptual asoslari"** deb nomlagan birinchi bobida nofilologik oliy ta'lim muassasalarida chet tillarni o'zlashtirish ehtiyoji ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida o'rganib chiqilgan hamda xorij mamlakatlari oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy

malakalarini rivojlantirishning qiyosiy-tipologik tahlili organib chiqilgan. Nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy malakalarni rivojlantirishga qo'yilgan zamonaviy talablar yoritilgan.

Talabalarning bo'lajak kasbiy malakalarni rivojlantirish alohida o'ziga xos ahamiyat kasb etib, ularning kelgusidagi kasbiy sifatlari va shaxsiy salohiyatiga extiyojning yuqoriligi, shaxs hayot faoliyatining turli sohalarida egallangan ma'lumotlardan keng qamrovli foydalanishni talab etmoqda.

Bo'lajak mutaxassislar uchun faqat birgina ona tili vositasida olinadigan axborot yetarli bo'lmay qoldi, chunki barcha sohalarida axborotning o'rni ortib bormoqda. Chet tillarni o'zlashtirish natijasida talablar yanada ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lib, ularda kasbiy malakalarni rivojlantirishda vosita vazifasini o'taydi. Bu borada kasbiy yo'naltirilgan ta'lim talabalarning bo'lajak kasbi yoki mutaxassisligidan kelib chiqadigan chet tilni o'rganishga ehtiyojini hisobga olishga asoslangandir.

Chet til o'quv predmet sifatida, ona tilidan farq qilib, muayyan prinsiplarga asoslanib o'rgatiladi va o'qitiladi:

chet til barcha ta'lim bosqichlarida majburiy o'quv predmeti maqomida o'rgatiladi va o'qitiladi;

chet tilga bo'lgan ta'limiy imkoniyat muhim ekanligi tan olinmoqda;

chet til ta'limi va o'kitish mazmunining uch komponenti chet til o'rganishga imkon beradi.

Nofilologik OTM da chet til amaliy o'rgatiladi, bu chet til o'quv jarayonining mazmuni va texnologiyasi talabaning bo'lajak kasbi bilan bog'liq bo'lishini taqozo etib, an'anaviy ta'limga tayanadi va zamonaviy axborot olish maydonini kengaytirishni talab etadi. Shuningdek uni o'rganish talabalarning kasbiy malakalarni rivojlantirishga imkon beradigan vositadir. Chet tilni amaliy o'rganishda o'zga tildagi nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv)ni egallash nazarda tutiladi, ya'ni o'zgarlar fikrini idrok etib tushunish va o'z fikrini og'zaki va yozma ifodalash haqida so'z yuritilmoqda. Shaxsning kasbiy malakalarini shakllantirish didaktik muammodir. Talabaning kasbiy malakalarini rivojlantirish ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan uzluksiz davomli jarayondir. Chet til o'qitishning psixologik, pedagogik va metodik aspektlari nafaqat xorij olimlari, balki yurtimiz olimlari tomonidan ham o'rganib kelinmoqda (P.I.Obrazsov, F.V.Rojkova, O.B.Tarnopolskiy, Yelaine Campbell, Jereny Comfort, J.J.Jalolov, T.Q.Sattorov, S.S.Saydaliev va b.). Har qanday maqsad ehtiyoj tufayli paydo bo'ladi. Shaxsiy shijoat tashqi ijtimoiy, shu jumladan, maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya muhitlarining ta'siri ostida kechadi.

Kasbga yo'naltirish – jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan holda tahsil oluvchiga ma'lum bir kasb-hunar o'rgatishning ta'limiy- ma'rifiy jarayoni bo'lib hisoblanadi. Didaktika ta'lim mazmunini tanlash muammolari bilan ham shug'ullanadi, ta'lim prinsipining qo'yilishi, ta'lim metodlari va vositalarining qo'llanilishini ishlab chiqadi. Demak, o'kitish mazmuni didaktik kategoriyaga tegishli bo'lib, o'qituvchi o'qitish mazmuni nazariyasini yaratadi va shuning bilan u jamiyat talabini bajaradi. Kasbga yo'naltirilgan chet til ta'limi qoidaga binoan funksional va kommunikativ yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Chet til ta'limidagi funksional va

kommunikativ yondoshuvlar Fransiyada XX asrning 70-yillarida paydo bo'ldi va "og'zaki nutq" markaziy pozitsiyani egalladi".


Kasbiy (kasbga yo'naltirilgan) chet til termini fransuz adabiyotida "Langue professionnelle", "Langue des professions" deb yuritila boshlagan. Iqtisod, biznes, informatika muhitida ESP, "Langue professionnelle", "Langue des professions" kurslariga talab katta bo'lmoqda. O'zbekistonda chet til ta'limi o'z tarixiga ega va davrlarga bo'lingan. Uchinchi Renessans pallasida, yangilanayotgan O'zbekistonda chet tillarini o'qitishga o'zgacha e'tibor qaratilmoqda. Nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarida bo'lajak kasbiy malakalarni rivojlantirish uchun fransuz tilini o'qitish jarayonini pedagogik jihatdan tavsiflashning ikki jihati farqlanadi:

talabaning til o'zlashtirish asosida kelgusidagi kasbiy malakalarga ega bo'lish motivlarining paydo bo'lishi. Bunda ichki sabablar, ya'ni xatti harakat egasining sub'ektiv pedagogik va psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo'ljallar, istaklar, qiziqishlar va h.k.);

fransuz tilini o'qitish jarayonida tashqi sabablar bilan bog'liqlik, aniq holatlarning kelib chikishiga sabab bo'ladigan tashqi stimullarning vujudga kelishi, ya'ni, faoliyatning tashqi shart-sharoitlari, talaba shaxsining hulq-atvorini ichki psixologik sabablar tufayli boshqarish va boshqalar.

Kasbiy motiv va motivasiya muammosi mamlakatimiz va xorij pedagog va psixologlari-E.G'oziev, B.Qodirov, G'.Shoumarov; E.A.Klimov, V.A.Kruteskiy, A.N.Vasil'kova, E.Disi, V.Vrum, M.V.Dmitrievlar tomonidan keng doirada tadqiq qilingan. Chet tilda nutq faoliyatining ichki motivlarini to'g'ri tashkillashtirish shaxsiy yo'naltirilganlikka aylanadi. Gapirishning boshlang'ich mexanizmi motivasiyani harakatga keltirishdir, ya'ni faoliyatning birinchi fazasini amalga oshirishdir. Gapirish motivasiyasining mexanizmi juda nozik va individualdir. Tillarni mazkur tilda so'zlashadigan halqning dunyosi va madaniyati bilan uzviy aloqadorlikda o'rganish ta'limda samaradorlik omilidir. Biz tomonidan taklif etilayotgan professionalizasiya, ya'ni kasbiy yo'naltirilgan chet tilni o'zlashtirayotib, talaba bo'lajak kasbiy malakalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kasbiy yo'naltirilgan ta'lim - bu didaktik jarayonda talabalarning bo'lajak kasbi yoki mutaxassisligi xususiyatlari bilan belgilanadigan ehtiyojlarini hisobga olib, ularning kasbiy malakalarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Fransuz tilini o'qitishda «Til portfellari»dan foydalanish talabaning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Talabalarda fransuz tilidagi nutqni tezkor o'stirishda «Til portfellari» o'qituvchining tashkilotchilik faoliyatida, ilmiy izlanish va o'quv-tarbiya jarayonini aniq rejalashtirish va tashkil etish malakasida ko'rinadi. Bunda o'qituvchining tashkilotchilik faoliyati o'zini, o'zining vaqtini; talabalarning individual, guruh, jamoaviy ishini; birgalikdagi tadqiqotlarini amalga oshirish uchun talabalarni tanlab olish va ularning vazifalarini belgilab berishni tashkil etish malakasida namoyon bo'ladi. Ilmiy ishlanmalar va adabiyotlar tahlili, shuningdek, xorij mamlakatlari oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy malakalarini



1 -rasm. Talabalarni kelgusidagi kasbiy malakalarini rivojlantirish mexanizmi


rivojlantirish masalasini qiyosiy-tipologik tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirish bir qator mexanizmlar yordamida amalga oshadi

Talabalarni kelgusidagi kasbiy malakalarini rivojlantirish mexanizmini aks ettiruvchi 1-rasmda ko'rsatilishicha, talabalarning kasbiy malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan chet til o'rgatishning mohiyati qo'shimcha kasbiy bilimlarni olish va kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatlarni shakllantirish maqsadida maxsus fanlar bilan integratsiyalashuvidan iborat holda qaraladi va bu jarayonga innovatsiyalarni kiritish muhim bo'lib hisoblanadi.

“Mexanizm” metoforik tushuncha bo'lib, biror narsani harakatga, faoliyatga olib kelishi, biror narsaning nimaningdir ta'sirida harakatga keltirishidir. Rasmda ifodalangan mexanizm tarkibida faoliyat o'zining ichki va tashqi tomonlariga egaligi bilan ajralib turibdi. Faoliyatning ichki tomoni insonning persektiv fikrlovchi-mnemik faoliyatini shakllantiruvchi ruhiy timsoldir. Bu timsol insonning rejalashtiruvchi vazifasini amalga oshiradi. Bizning fikrimizcha, bugungi globallashtirish jarayonda chet til ta'limida talabalar bo'lajak kasbiy malakalarini rivojlantirish mezonlari quyidagilarda aks etishi zarur:

- chet tilda sohaviy axborotlarni o'zlashtirish;
- mutaxassislik terminlarni chet tilda o'zlashtirish;
- ona tilida olgan mutaxassislik ma'lumotlarini chet til materiali orqali mustaxkamlash.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirish ma'lum bosqichlarda kechadi (2-rasmga qarang):



2- rasm. Talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirish bosqichlari

Rasmda ifodalanganidek, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirish fransuz tilini o'qitishda uzluksizlik va uzviylik tamoyillariga asoslangan holda muhim ahamiyat kasb etadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirishda kasbiy yo'naltirilgan muvoqot, kasbga oid kompetensiyaga ega bo'lish muhimdir.

Kompetensiya deganda, faoliyatga oid masalalarni hal qilishda bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarni namoyon etish qobiliyati tushuniladi. Chet tilda kasbiy yo'naltirilgan kompetensiya kontekst yondoshuv asosida amalga oshiriladi.

Turli ta'lim muassasalari o'quv rejasidan o'rin olgan "Chet til" o'quv predmeti quyidagi maqomlarga ega: umumta'lim o'quv predmeti: maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik lisey, kasb-hunar kollejlari va nolisoniy oliy o'quv yurtlarida; mutaxassislik tili maqomida: chet til oliy o'quv yurtlari, fakultetlari va bo'limlarida; ikkinchi mutaxassislik sifatida – tildan boshqa sohalar birinchi mutaxassislik va qo'shimcha yana chet til (masalan, maktabgacha tarbiya va chet til).

Turli oliy ta'lim muassasalarida chet til o'rgatish maqsad va xususiyatlarini inobatga olib, ular ikki guruhga ajratiladi. Chet til (ingliz, nemis, fransuz va boshqa tillar) bo'yicha mutaxassis tayyorlovchi oliygohlar. Chet til (ingliz, nemis, fransuz va boshqa tillar) bo'yicha mutaxassis tayyorlamaydigan nofilologik oliy o'quv yurtlari.

Birinchi guruhdagi OTMda talabalarga chet til maxsus dastur va darsliklar asosida, ham nazariy, ham amaliy o'rgatiladi. Chet til to'rt maqsadda o'qitiladi: amaliy, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi.

Ikkinchi guruhdagi nofilologik OTM da chet til o'qitishda kompleks maqsad ko'zda tutiladi. Talaba to'rt maqsad asosida chet tildan umumta'lim olib, o'zining ke-

lajak kasbiy faoliyatida ogʻzaki va yozma muloqot sifatida foydalana olish malakasi-ga ega boʻlishi lozim. Shuningdek, chet tillar boʻyicha olgan bilimlari va hosil qilgan malakalari asosida sohaviy terminlarni tushunish va tildan foydalanish jarayonida qoʻllash, boʻlajak mutaxassisning kasbiga mos keluvchi tor doirada soʻzlashga oʻrgatish, oʻz sohasi boʻyicha chet tildagi ilmiy-texnik adabiyotlardan foydalana olishlari kerak boʻladi.

Nofilologik oliy taʼlim muassasalari talabalarida kasbiy malakalarni rivojlan-tirishga qoʻyilgan zamonaviy talablar oʻrganilganda, ular dual taʼlim, masofaviy taʼlim shakllaridan foydalanishlari ham eʼtiborga olingan. Talabalarning mustaqil faoliyati, jumladan, shaxs sifatida shakllanishi, har qanday kommunikasiyada indi-vidual yondashuv, munozara mavzusi va metakognitiv jarayonlar ushbu faoliyatning muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Nofilologik oliy taʼlim muassasalari talabalarida kasbiy malakalarni rivojlan-tirish quyidagilardan iboratdir. Metakognitiv komponent -bilim va tilga oid koʻnikma va malakalar nutqiy mahorat. Kasbga yoʻnaltirilgan kommunikativ kompetensiyalar - kasbiy kompetensiya, shaxsiy kompetensiya, ijtimoiy-madaniy kompetensiya. Mu-taxassislik jarayoniga tayyorlash yani, kasbga oid texnika, tashkilotchilik qobiliyati, boshqaruvchanlik qobiliyati, Qaror qabul qilish qobiliyati. Yuqorida ifodalanganidek, nofilologik oliy taʼlim muassasalari talabalarida kasbiy malakalarni rivojlantirishda ularni xorijiy tildagi autentik materiallardan foydalanish, talabalarning taʼlim olishga boʻlgan motivasiyasini ragʻbatlantirish, oʻrganilayotgan oʻquv materiali boʻyicha bilimlarni oʻzlashtirish sifatini oshirish, tahliliy va tanqidiy fikrlash; bilish faolligini oshirish, shaxsiy, guruh shaklidagi mustaqil ishlarni tashkil etish, xorijiy tilni oʻqitish jarayonida bevosita va bilvosita interfaollik, refleksiya uchun metakognitiv tajriba hamda qobiliyatni shakllantirish, har qanday taʼlim yoʻnalishi doirasida mavzuiy yoʻnaltirilgan taʼlim oʻzgaruvchanligini taʼminlash, nazariy va amaliy tavsifdagi fan-lararo vazifalarni hal etish; reseptiv, produktiv nutqiy faoliyat va ijodiy salohiyatni rivojlantirish, taʼlim jarayonida ijobiy hissiy munosabatni shakllantirish, oʻquv mate-riallarini oʻzlashtirish strategiyasining umumiy koʻnikma va malakalarini egallash imkonini beradi.

Bir qator olimlar (S.L.Rubinshteyn, A.N.Leont'ev, I.A.Zimnyaya, Ye.A.Mileryan) konsepsiyasiga koʻra, malaka olingan bilim va koʻnikma asosida shakllanadi. Taʼlimning yakuniy maqsadi- malakalarni hosil qilishdan iboratdir. Shunga koʻra kasbiy bilim va koʻnikmani egallash natijasida kasbiy malaka shaklla-nadi.

Faollashgan harakat, yaʼni qator operatsiyalarning ong nazoratisiz, oʻz-oʻzidan beixtiyor bajarilishi malaka deb ataladi.

Chet til oʻqitish-oʻrganishdagi bosh maqsad kommunikativ layoqatni shakllantirishdan iboratdir. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish borasida I.A.Zimnyaya, Ye.M.Vereshchagin, M.I.Vyatyugnev, V.G.Kostomarov, N.I.Gez, L.L.Fedorovlar diqqatga sazovor ilmiy ishlanmalar yaratishgan.

“Sharoit” taʼlimda birlamchi didaktik hodisa sanaladi. “Sharoit” tushunchasi tarkibiga darsga ajratiladigan vaqt (soatlar), oʻrganish muhiti, til oʻrganuvchining yo-shi, umumiy saviyasi, til tajribasi, guruhdagi talabalar soni kiradi. Sharoitga koʻra, til

o'qitish maqsadi belgilanadi va chet til o'qitish mazmuni tanlanadi, hamda shunga ko'ra metod va prinsiplar, o'quv vositalari ishlab chiqiladi.

Nofilologik OTMda ta'lim olayotgan bo'lajak mutaxassislar o'zlari tanlagan sohalari bo'yicha umumiy pedagogika, kasbiy psixologiyadan bilimlarini oshirib, ularni o'zlarining tanlagan sohasiga bog'liq holda o'rganib boradilar. O'z faoliyatlarini davomida talabalar tanlagan sohalari bo'yicha mutaxassis sifatida shakllanib, chet tilda muloqotni samarali amalga oshirish kompetensiyasiga ega bo'ladilar.


To'rtta nutq faoliyatini yaxshi egallagan shaxs axborotni gapirish va yozma nutq orqali yetkaza olishi kommunikant (muloqotdosh) hisoblanadi.

Chet til ta'limidagi kommunikativ maqsad madaniyatlararo kognizantni shakllantirishdan iboratdir. Kognizant - o'rganilayotgan til tashuvchilari bilan muloqot qila olish.

Ta'limda tizimlilik (sistemalilik) didaktik kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Bunda tizimlilik va izchillik o'quv fanlarning bir-biri bilan bog'liq bo'lishini ham nazarda tutadi. Izchillik yagona ta'lim tizimida o'quvchilarning oliy ta'limgacha, talabalarining oliy ta'limda va mutaxassislarning oliy ta'limdan keyingi bosqichlarda tayyorgarligini ta'minlaydi.

Demak, nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy malakalarni rivojlantirishda didaktik jarayonning uchta funksiyasini ajratib ko'rsatish mumkin, ya'ni, ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiyalashdir. Ta'limning rivojlantiruvchi funksiyasi ta'lim jarayonida, bilimlarni o'zlashtirishi jarayonida o'quvchining rivojlanishi sodir bo'lishini ko'rsatadi. Rivojlanish quyidagi xollarda sodir bo'ladi: ya'ni nutqi rivojlanishi, fikrlashi shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotional irodaviy va ehtiyoj sababli sohalari rivojlanadi. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim albatta shaxsni doim rivojlantiradi. Ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi xususan "rivojlantiruvchi ta'lim" tushunchasi bilan ifodalanadi.


Chet tillarni o'rgatishda zamonaviy talablardan biri bo'lmish innovasion texnologiyalarning muhim turi sifatida akmelingvistik texnologiyalar, shaxsning kreativ xususiyatlari negizida birinchi o'ringa akme yo'nalganlikni qo'yadi.



3-rasm. Chet tillarni o'rgatishda akmelingvistikdan foydalanish.

Chet til o'quv predmetini o'rgatishda bo'lajak mutaxassisning nutq turlariga bo'lgan real ehtiyojidan kelib chiqishi hamda shu orqali ta'lim maqsadlari va usullarini talabaning kasbiy marralarni egallashi uchun mos ravishda tanlash

komponentlarda ifodalanadi. Shuningdek, kasbiy jihatdan muhim bilish xislatlari: kuzatuvchanlik va diqqatlilik, rivojlangan xotira, ijodiy tasavvurni qamrab oladi.



5-rasm. Bo'lajak mutaxassislarda kasbiy malakalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan takomillashgan mexanizm

O'zbekiston Respublikasining yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga binoan, mamlakatimizda "Dual" ta'limi shaklidan foydalanilmoqda. Bunda ta'limni ishlab chiqarish bilan amaliy qismini (tashkilotlarda) hamda nazariy qismini muassasalarda tashkil etishdan iborat. Tajriba va kuzatishlarimiz natijasida chet til ta'limini kasbiy yo'naltirish asosida bo'lajak mutaxassisning kasbiy ko'nikma va malakalarini hosil qilish erishildi. Bunda, nofilologik oliy ta'lim muassasalari bo'lajak mutaxassislarida kasbiy malakalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan mexanizmning mohiyatida chet til o'qitish o'rganishda to'rt ta'limiy tushuncha e'tiborga olinishi bilan ham izohlandi:

Chet tilni o'rganishdan maqsad, chet til o'rganish sharoiti (qaysi o'quv yurtida va qay muhitda o'rganilyapti), chet til o'rganish mazmuni (og'zakiyozma, ilmiy-hayotiy mavzu), chet til o'rganish metod va prinsiplari. Chet (fransuz) til bo'yicha tashkil qilinadigan mashg'ulotlarda bo'lajak mutaxassislarda kasbiy malakalarni rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlariga ko'ra faoliyat kategoriyasiga bog'liq. Faoliyat jarayonida shaxs har tomonlama va bir butun, yaxlit xolda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirish uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Chet tili ta'limi ona tilini o'qitishga ko'ra tashkiliy jihatdan keskin farq qilishi chet tilni egallashda tafovut seziladi, avval ta'kidlanganimizdek, ona tilini, "quyidan yuqoriga", chet tilni esa aksincha, "yuqoridan quyiga" qarab o'rgatish qoida tusini olgan. Bola ona tilini ongsiz ravishda, o'ylamasdan o'zlashtira

boradi, chet tilni esa ongli holda ataylab o'rganadi. Shuningdek, bola ona tilini tabiiy sharoitda egallaydi, til o'rganishga ongli tarzda urinish bo'lmaydi. Tafakkur ontogenezida rivojlanish jarayoni g'ayrushuuriy ravishda kechadi.

Bizning ko'zlagan maqsadga erishishimizda matn axboroti autentligiga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etishi tajribalarimizdan ma'lum bo'ldi. Sohaviy matnlarning ahamiyatligi, tushunarligi, bayonning sistemaligi, mantiqiyliqi, avval o'rganilgan hamda o'rganilayotgan leksik va grammatik material bilan bog'liqligini tavsiflandi.

Bizning fikrimizcha ham, ishlashda talabalar bo'lajak sohalariga oid terminlarni bilib borishlari hamda o'qituvchi rahbarligida ularni mustahkamlash borasida turli topshiriqlarni bajarishlari orqali ma'lum darajada kasbga yo'naltirib matn autentligi avval o'zlashtirilgan leksik va grammatik materiallar bilan bog'liqlik va tushunarligi bilan matnni tushunishga ta'sir o'tkazadi va u o'quv materialni tanlashda eng muhim mezon deb aytishimiz mumkin. Nofilologik OTMlarda talabalarning bo'lajak kasbiy malakalarini rivojlantirishda quyidagi yondashuvlardan foydalanildi. Kontekst yondashuv. Mazkur yondashuvda, barcha metodlar va vositalar yordamida mutaxassisning bo'lajak kasbiy faoliyatini ijtimoiy mazmuni modellashtiriladi. Kontekst yondashuv prinsiplarini chet til o'qitishda qo'llash quyidagi vazifalarni hal qilish imkonini berdi: chet til o'rganish motivasiyasini, boshqa fanlar bilan birga ularning kasbiy qiziqishlarini oshiradi; professional shaxs sifatida mutaxassisning tizimli fikrlashini tarbiyalaydi; mutaxassis shaxsni shakllantiradi; - ishga mas'uliyatni kuchaytiradi.

Kontekst o'qitish fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashga yo'naltirilgan bo'lib, kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarni, bo'lajak mutaxassisning ijodiy tajribaga ega bo'lishini ta'minlaydi. Kontekst yondashuv masalalari bilan dastlab A.V.Verbiskiy so'ngra Borisova, Ye.V. Musniskaya, T.M.Sorokina, V.F.Tenishevalar tomonidan ilmiy asoslab berilgan.

Shaxsiy yo'naltirilgan yondashuv. Mazkur yondashuv qo'llash mutaxassislarni tayyorlashning asosiy prinsiplaridandir. Shaxsiy yo'naltirilgan yondashuvda o'qituvchi va talaba hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsiy faoliyatga oid yondashuvda talabaning intellektual xususiyatlarini, ya'ni talabaning tafakkuri, xotirasi, idroki va emosional muhitini, shuningdek, uning kommunikativ va bilish ehtiyojlarini inobatga olish muhimdir. Talabaning kommunikativ ko'nikma va malakalari ularning shaxsiy xususiyatlari bilan izohlanadi.

Kasbga yo'naltirilgan yondashuv. Fransuz tili ta'limi jarayonida egallangan bilim, ko'nikma, malaka o'quv faoliyatining emas, balki kasbiy faoliyatning vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Kasbiy faoliyat kontekstini o'qitishning qator metod va formalari aniqlaydi. Integrativ yondashuv chet til ta'limida muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak mutaxassislarida kasbiy malakalarni rivojlantirish yo'lida fransuz tili ta'limini tashkil qilishda psixologik sharoitlarni inobatga olish eng muhim masaladir.

Qiziqish uyg'otish. O'quv jarayonini optimallashtirishning muhim shartlaridan biri qiziqishdir. Qiziqish o'qituvchi va talabalarning auditoriyadagi maqsadga yo'naltirilgan hamkorlikdagi diqqat e'tiborini bir joyga to'playdigan mehnatdir. Chet tildan mutaxassis kadrlar tayyorlaydigan OTM o'qituvchilarining va tildan mutaxassislik bermaydigan nofilologik OTMda dars beruvchi o'qituvchilarning

umumiy va farqli jihatlari mavjud bo‘lib, bizning tadqiqotimizga ko‘ra bularni inobatga olish o‘ta muhimdir deb hisoblaymiz. (2.2.1-jadvalga qarang.) Nofilologik OTM talabalari chet til ta’limi jarayonida to‘rt asosiy nutq faoliyati turlari (o‘qish, yozish, gapirish, tinglash)ni o‘rganadilar. Vaholanki, chet tildan mutaxassislik olayotgan talabaning amaliy o‘rganishi (yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek) jami o‘nta nutq faoliyati turlarini qamrab oladi. Demak, qiyosiy-tipologik tahlillarga ko‘ra, bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy malakalarni rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari ta’lim turiga qarab ham farqlanadi. Bugungi kunda chet til o‘qituvchisining “kasbiy kompetensiyasi” tushunchasi mazmuni kengaydi. Agar ilgari chet til o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi deganda, mutaxassislik sifatida tilni egallash layoqati tushunilgan bo‘lsa, xozirda mazkur tushuncha yana qo‘shimcha kasbga yo‘naltirilgan kompetensiyani ham anglatmoqda. Demak, nofilologik OTMda chet tildan saboq beruvchi o‘qituvchi oldiga quyidagi qo‘shimcha talablar muhim deb hisoblaymiz va ular quyidagilardan iborat:

talabaning og‘zaki nutqini rivojlantirish bilan birga uning tanlagan sohasi bo‘yicha kasbiy kompetensiyasini shakllantirish;

original materiallar orasidan kasbga yo‘naltirilgan o‘quv materiallar (matn, mashqlar)ni tanlay bilish va ularni soddalashtira bilish.) talabalarga chegaralangan vaqt me’yorida amaliy mashg‘ulot o‘tish kabilar.

Yuqorida aytib o‘tilgan fikrlarni jadval shaklida keltiramiz.

1-jadval.

OTMda chet tilidan ta’lim beruvchi o‘qituvchilarning farqli funksiyalari

Filologik (lisoniy) OTM o‘qituvchisi	Nofilologik OTM o‘qituvchisi
Ta’lim jarayonida asl nusxadagi materiallardan foydalanadi.	Asl nusxadagi materialni soddalashtiradi (adaptasiya qiladi).
Lingvistik bilim beradi.	Kommunikativ
4ta asosiy 6ta qo‘shimcha nutq faoliyati turlarini o‘rgatadi.	4 ta nutq faoliyati turlarini kompleks o‘rgatadi.
Tayyor O‘MMdan foydalanadi.	Sohaga moslab O‘MM tuzadi.
Ma’ruza, seminar, laboratoriya mashg‘ulot, amaliy mashg‘ulot olib boradi.	Vaqt me’yori chegaralangan, faqat amaliy mashg‘ulot o‘tiladi.

Fransuz tili ta’limining muhim o‘ziga xos xususiyati uning kommunikativ yo‘nalganligidir. OTMga o‘qishga kirgan talaba yangi sharoitga psixologik va jismoniy qiyinchiliklarni boshdan kechirib moslasha boradi. Talabalar zimmasida OTM da mutaxassislikni egallashga oid qator vazifalar turadi. T.Q.Sattorov bu ikki sharoitni qiyoslab, talabalarning moslashish jarayoni ko‘pgina omillarga bog‘liqligini izohlab o‘tadi [220,-67.b.]. Fikrimizcha, maktab va OTM o‘quv mashg‘ulotlarida kasbiy yo‘nalganlikning namoyon bo‘lishini quyidagicha qiyoslash maqsadga muvofiq (2-jadvalga qarang).

2-jadval

OTM va maktab o‘quv mashg‘ulotlarida kasbiy yo‘nalganlikning namoyon bo‘lishi (qiyosiy tahlil)

Maktab sharoiti	Oliy o‘quv yurti sharoiti
-----------------	---------------------------

O‘qituvchi salohiyati (oliy toifa)	Assistent, dotsent, professor
O‘smir yoshidagi tahsil oluvchilar	Balog‘atga yetgan, o‘spirin yoshidagi tahsil oluvchilar
Talabalar jamoasi	Namunaviy o‘quv rejasida umumkasbiy va mutaxassislik fanlari blokiga kiruvchi o‘quv fanlarining mavjudligi
Maktabda o‘qitiladigan fanlarda kasbga yo‘naltirish mavzularining mavjudligi	Mashg‘ulotarning davom etish vaqti
Darsning davom etish vaqti	Ma‘ruza, seminar, amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlari
Amaliy tarzdagi darslar	Ta‘lim uslubi, metodi va usuli
Ta‘lim uslubi, metodi va usuli	Davomatning vaqti-vaqti bilan tekshirilishi
Davomatning muntazam tekshirilishi	Kasbga oid mustaqil ish
Mustaqil ishga yengil vazifa	Mutaxassislik fanlari bo‘yicha yakuniy nazorat usullari: kollokvium, reyting tizimi, nazorat
Yakuniy nazorat usullari: nazorot ishi, reyting tizimi	Oliy o‘quv yurti ichki tartibi mutaxassislik spetsifikasiga aloqadorligi
Maktabning ichki tartibi	Guruhning o‘z-o‘zini boshqarishi
Sinifni boshqarish	Guruh tarkibi
Sinfdagi o‘quvchilar tarkibi	Oliy o‘quv yurti an‘analari
Maktab an‘analari	Chet tildan (ixtisos bo‘yicha) tayyorgarligi darajasi.
Chet tildan talabalar tayyorgarligi darajasi	

Jadvalda aks ettirilganidek, OTM o‘quv mashg‘ulotlarida kasbiy yo‘nalganlikning namoyon bo‘lishi bir qadar kengdir. Chet til o‘quv predmetini o‘qitishda o‘qituvchining oldida psixologik-pedagogik vazifa – talabaning sub'ekt sifatida shakllantirish turadi. (1) konstruktiv, (2) tashkilotchilik, (3) gnostik (bilishga oid), (4) kommunikativ.


Ijtimoiy madaniy yondashuv. Fransuz tilini o‘rganishda motivasiyani oshiruvchi omillaridan biri bo‘ljak mutaxassis tili o‘rganilayotgan mamlakatning madani-

yatlarini o'rganishdir. Bu esa ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishishga zamin yaratadi xususan bo'lajak mutaxassisning ijtimoiy madaniyatini, dunyoqarashini kengaytiradi, uni ongli va intellektual jarayonga yo'naltiradi. Kasbiy motivlarni hosil qilish esa, talabaning kasbiy tayyorgarligida, ma'ruzalar tayyorlash chet tildagi ma'lumotlardan foydalana bilish, referatlar tayyorlash, diplom ishini himoya qilish kabilarida chet tilda qo'shimcha axborotlar olishga qiziqishni uyg'otishga erishiladi. Demak, talabaning bo'lajak mutaxassis tarzida o'zligini anglash jarayoni kasbiy yo'naltirilgan ta'lim ta'sirida ro'yobga chiqadi.

Kasbiy malakalarni rivojlantirish konsepsiyasini ro'yobga chiqarishda quyidagi sharoitlar yaratilishi muhimdir deb hisoblaymiz: nofilologik OTM da chet til ta'limida kasbiy malakani rivojlantirishga yo'naltirilgan muhitni yaratish, talabaning shaxsiy, kasbiy rivojlanishini yaxlitligini ta'minlash. Xususan, a) chet tilni maxsus fanlar bilan integratsiyasi (yaxlitligi)ni ta'minlash orqali qo'shimcha kasbiy bilimlarni olish maqsadida shaxsning kasbiy sifatlarini shakllantirish yo'li bilan talabaning professional kompetensiyasini oshirish;

b) chet tilni kasbiy yo'naltirish jarayonida axborot bilan ishlash, kasbiy hamkorlikni amalga oshirish layoqatini shakllantirish, muloqot turlari sifatida talabalarga pedagogik ta'sir ko'rsatishning verbal va noverbal vositalari xaqida tushuncha berishga e'tibor qaratildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy malakalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari**" deb nomlangan bo'lib, unda talabalarining bo'lajak kasbiy malakalarni rivojlantirishning amaliyotdagi holati o'rganilgan, hamda nofilologik OTM talabalarida bo'lajak kasbiy malakalarni rivojlantirishga mo'ljallangan model ishlab chiqilgani bayon etilgan. Shuningdek, talabalarining bo'lajak kasbiy malakalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish xolatlari ilmiy va pedagogik, metodik jihatdan ishlab chiqilgan. Biz muammoning mavjud holatini o'rganar ekanmiz, bo'lajak mutaxassislarda ijtimoiy ko'nikmalar-ning muhimligini alohida ta'kidlab, chet tildagi kasbiy yo'naltirilgan muloqotning to'rt bosqichini tavsiya etish zarurligini aniqladik. Nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarida kelgusida zarur bo'ladigan kasbiy malakalarni rivojlantirish quyidagi-cha tashkil etiladi: an'anaviy va noan'anaviy, interfaol ta'lim texnologiyalaridir. Shundan kelib chiqib, biz tadqiqot maqsadi asosida Nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy malakalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan modeli yaratildi.



6-rasm. Nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy malakalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan model

Modelda ifodalangan talab va ehtiyoj, iste'molchilarning istaklarini o'rganish; ularning munosabatlarni yangi mohiyatda tashkil etish, fransuz tili mashg'ulotlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish kabilar talabalarni kelgusidagi kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimining komponentlari hisoblanadi.

Nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish modelini amaliyotga tatbiq etish natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarda kasbiy malakalarni rivojlantirish nutq kompetensiyasining quyidagi turlarida

mo'jassamlashadi: lingvistik, sosiolingvistik, diskursiv, strategik, ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy, predmetli, professional.

Nofilologik oliy ta'lim muassasalarining tabiiy ta'lim yo'nalishlari (kimyo, biologiya, geografiya) bo'lajak mutaxassislarida nutq faoliyatining quyidagi tarkibiy qismlari aniqlandi: 1) kognitiv (boshlang'ich bilim va ko'nikmalar sifatida savodxonlik); 2) kompetensiyali; 3) qiymatli-semantik; 4) aks ettiruvchi va baholovchi; 5) madaniy


Nofilologik oliy ta'lim muassasalarining bo'lajak mutaxassislarida fransuz tilidagi nutq kompetensiyasi madaniy yondashuv nuqtai nazaridan shaxsning kommunikativ madaniyatning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish mumkinligi ayon bo'ldi. Bunga misol qilib, nofilologik oliy ta'lim muassasalari bo'lajak mutaxassislarining muomala madaniyati, shaxslararo munosabatlar madaniyati, o'zini tutish madaniyati, nutq madaniyati, fikrlash madaniyati, hissiyot madaniyati va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Kasbiy faoliyatda nutq kompetensiyasi quyidagi uch funksiyani bajarishi aniqlandi: aniqlash (axborot almashish); interaktiv (o'zaro ta'sirni tashkil etish); perseptual (o'zaro aloqalarni o'rnatish uchun boshqa odamning qiyofasini idrok etish va shakllantirish). Nutq kompetensiyasini rivojlantirishga mo'ljallangan quyidagi mashg'ulot turlarini ko'rsatish mumkin: an'anaviy mashg'ulotlar (fanlarni o'rganish jarayonida yoki turli xil professional sohalar bilan tanishish jarayonida bilimlarni o'zlashtirish; faol mashg'ulotlar (kasbiy muhim fazilatlarni, amaliy ko'nikmalarni va ishbilarmonlik bilan muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish). Shunga ko'ra, yangi ta'lim standartlarida ta'kidlanganidek, "ona tilida (yoki davlat tilida) yozma va og'zaki muloqot" deb belgilangan universal kompetensiyaga asoslangan nutq kompetensiyasi an'anaviy va faol ta'lim usullari hamda tavsiya etilayotgan model asosida shakllanishi mumkin. Chunki, pedagogik texnologiya didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan metod va vositalarning bir butunligini o'zida namoyish etadi.

Pedagogik texnologiya talabaning intellektual xulqiy, va kasbiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishida, Internet cheksiz axborot olish va berish manbai bo'lmoqda. Texnologiyalarning rivojlanishi bilimlarni o'zlashtirish jarayonini tezlashtirmoqda hamda zamonaviy mutaxassisni doimiy ravishda o'z ustida ishlashga jalb etadi. Bu esa "butun hayotga ta'lim" konsepsiyasidan "butun hayot davomida ta'lim"ga o'tishni bildiradi. Ta'limda kasbiy malakalarni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyadan foydalanishning didaktik jihatlari o'rganib chiqildi. Yuqorida aytib o'tilgan kuzatish natijalariga ko'ra, bulajak mutaxassislar o'zlarining bo'lajak kasbiy malakalarini rivojlantirishning texnologiyasi yaratildi.

Tajribalar mobaynida kasbga yo'naltirilgan nutq malakalarini shakllantirish uchun talabalarda bilishga oid motivlar quyidagicha tabaqalashtirildi: chet tilga qiziqish lingvistik fikrlashni rivojlantiradi; chet tildan kasbiy axborot olish vositasi sifatida foydalaniladi; chet til o'rganilayotgan mamlakatning madaniyatini o'rganish; talabalarining dunyoqarashini kengaytiradi va madaniyatlararo muloqot qilish uchun zamin tayyorlaydi.

Ogʻzaki nutqni mashq qilish talabalar fikrlash faoliyatini aktivlashtirishga koʻproq imkoniyat beradi va qiziqish uygʻotadi. Ularning hammasi tilni oʻzlashtirish jarayoniga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Ogʻzaki nutq oʻstirish orqali fransuz tilini oʻzlashtirish yuqori pogʻonaga koʻtariladi. Chet til darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar hisoblanmish – oʻyin-topshiriq, turli strategiyalar (interaktiv metodlar), komp'yuter texnikasi va test usullaridan foydalanib, oʻquv mashgʻulotlarini tashkil etishlari dars samaradorligigiga olib kelishi oʻtkazilgan tajribalarimizdan aniqlandi. (7-rasm)



7-rasm. Kasbiy malakalarni rivojlantirish texnologiyalari

Dissertasiyaning toʻrtinchi bobi **“Nofilologik oliy taʼlim muassasalari talabalarining kasbiy malakalarini rivojlantirish texnologiyalari samaradorligi”** deb nomlanib mazkur muammoni oʻrganish uchun tajriba-sinov ishlarining mazmuni, bosqichlari, tashkil qilinishi va matematik-statistikasi natijalariga bagʻishlangan. Nofilologik OTM talabalarida boʻlajak kasbiy malakalarini rivojlantirishga moʻljallangan tajribatadqiqot toʻrt bosqichda amalga oshirildi, yaʼni, tashkiliy (2017-2018), aniqlashtiruvchi (2018-2019), shakllantiruvchi (2019-2020) va yakunlovchi

(2019–2020). Tajriba-tadqiqot ishlari 2017-2020 yillarda Nizomiy nomidagi TDPU, Ko‘qonDPI, SamDU larning “Tabiiy fanlar fakultetlarida” tashkil etildi. Statistik tajriba jarayonida mazkur ta‘lim muassasalarining 1-3 bosqich bakalavr talabalari jalb etildi. “Nofilologik oliy ta‘lim muassasalari bo‘lajak mutaxassislarida kasbiy malakalarni rivojlantirish” nomli tajribaviy maxsus kursning dasturi, “Tezkor fransuz tili” mualliflik elektron trenajyori, muallif tomonidan ishlab chiqilgan model pedagogik amaliyotga joriy etildi.

Tajriba sinov ishlarida tanlab olingan guruxlar tajriba va nazorat guruxlariga bo‘lindi va ularning bilim samaradorligini oshirishga qaratilgan kasbiy sohalarga muljallangan didaktik topshiriqlar ishlab chiqildi va tajriba guruxlarining o‘quv jarayoniga tatbiq etildi. Nazorat guruhlarida esa an‘anaviy topshiriqlar asosida mashg‘ulotlar olib borildi. Tajriba sinov ishlarining obektlari sifatida OTM laridan TDPU, QDPI va SamDUlar tanlab olindi. Chet til umumta‘lim o‘quv predmetini o‘zlashtirishda talabalarda kasbiy malakalarini shakllanganlik darajasini tahlil qilish va olingan natijalarni matematik-statistik usuldan foydalanib qayta ishlash yo‘li bilan tajriba –sinov ishlari samaradorligi tekshirib ko‘rildi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, chet til ta‘lim jarayonida talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirish texnologiyasi mezonlari deb quyidagilar belgilandi: chet tilda sohaviy axborotlarni o‘zlashtirish; mutaxassislik terminlarni chet tilda o‘zlashtirish; ona tilida olgan mutaxassislik ma‘lumotlarini chet til materialini orqali mustahkamlash.

Nofilologik oliy ta‘lim muassasalari bo‘lajak mutaxassislarida kasbiy malakalarni rivojlanganligini baholash mezonlari yuqori, o‘rtacha, past darajalar deb baholandi.

3- jadval.

Nofilologik oliy ta‘lim muassasalari talabalarining kasbiy malakalarining rivojlanganligini baholash mezonlari

Daraja	Mezon
Yuqori 86-100 ball 25 tadan 22-25 ta to‘g‘ri javob	<p>a) chet tilda sohaviy axborotlarni o‘zlashtirish; Kasbiy malaka mohiyatini yaxshi tushunadi; tilning leksik tuzilmalarini yaxshi biladi; Kasbiy malaka tuzilmasi bo‘yicha ma‘lumotga ega; so‘zning grammatik tuzilishini yaxshi tushunadi.</p> <p>b) mutaxassislik terminlarni chet tilda o‘zlashtirish: Kasbiga oid yangi so‘zlardan, professional atamalardan faol, samarali foydalanadi.</p> <p>c) ona tilida olgan mutaxassislik ma‘lumotlarini chet til materialini orqali mustahkamlash: Kasbiga dahldor ma‘lumotlarni tahlil qilish va sintez qilish qobiliyatiga ega; So‘zning ijtimoiy, psixologik va pedagogik ahamiyati, ta‘sirini to‘g‘ri baholash qobiliyatiga ega.</p>
Yaxshi 71-85 ball 25 dan 18-21 ta to‘g‘ri javob	<p>a) chet tilda sohaviy axborotlarni o‘zlashtirish: Kasbiga oid so‘zning ijtimoiy, psixologik va pedagogik ahamiyatini, ta‘sirini to‘g‘ri baholash qobiliyatiga ega; Kasbiga oid matndagi tilning grammatik tuzilishini tushunadi.</p> <p>b) mutaxassislik terminlarni chet tilda o‘zlashtirish: Kasbiga oid yangi so‘zlardan, professional atamalardan samarali foydalanishga harakat qiladi.</p>

	c) ona tilida olgan mutaxassislik ma'lumotlarini chet til materiali orqali mustaxkamlash: O'rganilayotgan mavzuni tahlil qilish va sintez qilish qobiliyatiga ega; Kasbiga taalluqli so'zning ijtimoiy, psixologik va pedagogik ahamiyatini, ta'sirini to'g'ri baholashga harakat qiladi
O'rta 55-70 ball 25 dan 14-17 ta to'g'ri javob	a) chet tilda sohaviy axborotlarni o'zlashtirish: Kasbiy faoliyatiga aloqador tilning leksik tuzilmalari haqida bir oz ma'lumotga ega; b) mutaxassislik terminlarni chet tilda o'zlashtirish: ko'p xatolarga yo'l qo'yadi, garchi u yangi so'zlarni, kasbiy atamalarni tushunishga harakat qilsa ham. c) ona tilida olgan mutaxassislik ma'lumotlarini chet til materiali orqali mustahkamlash: yangi so'zlar va kasbiy atamalardan samarali foydalana olmaydi; tahlil qilish va sintez qilish qobiliyatini to'g'ri baholash qobiliyatiga ega emas

Talabalarning kasbiy malakalarning rivojlanganligi fransuz tilidagi nutq kompetensiyalarining shakllanganlik darajasi bilan uyg'unlikda o'rganildi va yuqoridagi mezonlarga muvofiq belgilandi. Belgilangan mezonlar asosida talabaning kasbga yo'naltirilgan chet tilni o'zlashtirish orqali ularning o'zlari tanlagan sohalari bo'yicha kasbiy malakasini rivojlanishigq qo'shayotgan ulushini tajriba-sinov jarayonida ma'lum bo'ldi. Dastlabki tajriba –sinov guruhlarida quyidagi natijalarga erishildi. Ushbu jadvallardan umumlashgan xoldagi natijalar quyidagi jadvalda keltirildi.


4- jadval.

Ushbu jadvallardan umumlashgan xoldagi natijalar quyidagi jadvalda keltirildi.


Mezonlar	O'quv yillari	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
		Talabalar soni	O'zlashtirish darajasi			Talabalar soni	O'zlashtirish darajasi		
			Yuqori	yaxshi	O'rta		Yuqori	Yaxshi	O'rta
Chet tilda sohaviy axborotlarni o'zlashtirish	2018-2019	188	27	109	52	194	12	55	127
	2019-2020	189	23	113	53	188	12	47	129
Mutaxassislik atamalarini chet tilda o'zlashtirish	2018-2019	188	25	117	46	194	14	47	133
	2019-2020	189	25	125	39	188	13	48	127
Ona tilida olgan mutaxassislik ma'lumotlarini chet til materiali orqali mustaxkamlash	2018-2019	188	29	115	44	194	13	43	138
	2019-2020	189	32	116	41	188	13	42	133

O'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra nazorot guruhining bilim darajalari bir biridan farq qiladi deb xulosaga kelish hamda tajriba guruhining o'zlashtirish


ko'rsatkichlari samarali ekanligi matematik statistika usuli orqali isbotlandi. Ushbu hisoblash ishlarining boshqa ob'ektlardagi natijalari quyidagi jadvalda keltirildi.



8-rasm Chet tilda sohaviy axborotlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari




9.-rasm. Mutaxassislik atamalarini chet tilda o'zlashtirish ko'rsatkichlari.



10-rasm. Ona tilida olgan mutaxassislik ma'lumotlarini chet tili materiali orqali mustahkamlash ko'rsatkichlari

Demak olingan natijalarning xisob qiymatlariga ko'ra tajriba guruhlaridagi natijalarning xakkoniyligi statistik usullar bilan isbotlarni vaularning samaradorlik ko'rsatkichlari 13 foizdan 18 foizgacha yuqori ekanligini ko'rsatdi.



11-rasm. Samaradorlik koeffitsienti

Eksperimentning oxirgi bosqichida tarkibiy qismlardan har birini rivojlantirish darajasi bo'yicha nazorat va tajriba guruhlar talabalarini taqsimlashda kerakli farqlar mavjud va taqsimlashning surilishi yanada yuqori qiymat tomon sodir bo'ldi.

XULOSA

1. Nofilologik oliy ta'lim muassasalari bo'lajak mutaxassislarida kasbiy malakalarini rivojlantirish mexanizmi perseptual funksiyalar metakognitiv tarkibiy qismlar hamda tizimlashtirish va umumlashtirish metodik yondashuvlarga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.
2. Fransuz tilini o'qitish jarayonida talabalarning nutq kompetensiyalari kommunikativ, leksik, innovatsion (Stream, Strategic readings, Barcamp, Basket) texnologiyalarni qo'llash hamda sub'ektiv pedagogik va psixologik motivlar, ehtiyojlar, multimedia elektron dasturlarini o'zaro uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;
3. Talabalarning kasbiy malakalarni rivojlantirish texnologiyalari fasilitatsion, Blend-ap hamda kelgusi faoliyati uchun foydalanishga mo'ljallangan ilmiy-pedagogik, tarixiy-texnik, tizimlashtirish, umumlashtirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.
4. Talabalarning kasbiy malakalarni rivojlantirish bosqichlari perseptiv fikrlovchi, mnemik faoliyat hamda kasbiy ahamiyatli, shaxsiy sifatlarni optimallashtirish asosida aniqlangan.

5. Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy malakalarni rivojlantirish modeli nutq faoliyatining tarkibiy qismlari gnostik, kollaborativ, konstruktiv metakompetensiyalarni umumlashtirish hamda o‘qituvchi va talabalar uchun mo‘ljallangan interfaol breyshtorming va analitik metodlarni bosqichma-bosqich shakllantirish asosida takomillashtirilgan.

6. Nofilologik oliy ta‘lim muassaslari talabalarini kasbiy malakalarini shakllantirishda xamda rivojlantirishda barcha sohaviy fanlar qatori chet til o‘quv predmetining o‘qitilishi ham malakali kadrlar tayyorlashning muhim omili ekanligi aniklandi. Talabalarni kasbiy malakalarini rivojlantirishning ilmiy-amaliy tizimini yaratib, amaliyotga joriy etishga yo‘naltirilgan.

7. Nofilologik oliy ta‘lim muassaslari talabalarini kasbiy malakalarni rivojlantirish jarayoni hamda kasbiy malakalarni rivojlantirishga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarni o‘rganish natijasida ularning kasbiy faoliyatini tashkil etish hamda ishtirok etishlari pedagogik va psixologik jarayonlarga bog‘liq ekanligi aniqlandi. Pedagogik jihatdan har bir shahsning individual xususiyatlarini e‘tiborga olish sifatlariga tayanadi. Shuningdek, motivatsion sifatlar, idrok etish, xissiy, tafakkur, va tilni xis etish, fransuz tilida o‘z sohasi bo‘yicha muloqot qilish kompetensiyalariga ega bo‘lishlari individuallikning asosiy mezon bo‘lishi aniqlangan.

8. Ta‘limni kasbga yo‘naltirish didaktik -metodik jabhada amalga oshiriladi. Bunda ham o‘qituvchi, ham talabaning faoliyati taqazo etadigan o‘quv tarbiyaviy vazifalarni hal etishga qaratilishi aniqlandi. Nofilologik oliy ta‘lim muassasalari talabalarida bo‘lajak kasbiy malakalarini rivojlantirishda kasbga yo‘naltirilgan ta‘limni tashkillashtirish xususan kasbiy faoliyatli yondashuv asosida tashkil etish samara berdi. Bu uning lingvistik, didaktik, psixologik asoslariga tayanishi bilan izohlangan.

9. Chet til ta‘limining o‘ziga xos jihatlari, nazariy va didaktik jihatdan tahlil qilindi shuningdek, ta‘limining maqsadi, mazmuni, ta‘limdagi izchillik holatlari o‘rganildi. Nofilologik oliy ta‘lim muassaslari talabalarida bo‘lajak kasbiy malakalarini rivojlantirishda ta‘lim jarayonida uzviylik, izchillik va uzluksizlikni ta‘minlash asosida amalga oshirilishi ayon bo‘ldi. Natijada talabalarda kasbiy ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish texnologiyasi modeli takomillashtirilgan.

10. Nofilologik OTMda xorijiy tildan ta‘lim beruvchi o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri tanlangan mavzular, sohaga yo‘naltirilgan autentik matnlar, og‘zaki va yozma nutq malakalarini rivojlantirish uchun tanlangan mashqlar, maxsus terminlar lug‘ati, audio - video materiallar talabalarni kasbiy kompetentligining rivojlanishiga xizmat qilishi aniqlandi. Tanlangan material quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi: mazmunning dolzarbligi, axborotlilik, muloqot mavzusiga muvofiqlik, talabaning kasbiy faoliyati bilan motivlangan.

11. Nofilologik OTMda chet tilni o‘qitish amaliyoti va tajribalarimiz ko‘rsatadiki, talabaning kasbiy yo‘naltirilgan faoliyatiga qaratilgan texnologiyalar chet tilni o‘zlashtirishga ijobiy ta‘sir qiladi va talabalarining kasbiy til kompetentligi darajasining ortishiga xizmat qiladi. Natijada nofilologik oliy ta‘lim muassasalarida talabalarni kasbiy malakalarini rivojlantirishda innovatsion va pedagogik texnologiyalardan Blended learning, Bar camp, Basket, Klaster, Jigsaw, Tezkor javob (La reponce rapide), turli hil o‘yinlar, rolli o‘yinlar Bumerang, Dual, vebinar ta‘lim va hk. unumli foydalanish ta‘lim samaradorligiga erishishga olib keldi.

12. Tadqiqot jarayonida mutaxassislik fanlari va chet tilni o'zlashtirishda bilimlar o'rtalaridagi integratsion munosabatlar, kasbiy malakaning rivojlanishini yuzaga kelishida muhim boshlang'ich asos vazifasini o'tashi aniqlangan.

13. Tadqiqotning tajriba-sinov ishlari maxsus metodika asosida amalga oshirildi hamda ishlab chiqilgan mezonlar asosida nofilologik odiy ta'lim muassasalarida (fransuz tili misolida) chet til ta'limi jarayonida talabalarning kasbiy malakalarini rivojlanganlik darajasi sifat va son jixatdan matematik-statistik tahlil kilingan. Tadqiqot natijalari olib borilgan ishlarning samaradorligi aniqlangan.

TAVSIYALAR

Yuqoridagi xulosalarga va tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi tavsiyalar taqdim etiladi:

1. Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida "fransuz tilini" o'qitish bo'yicha yaratilayotgan o'quv dasturlar, darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar mazmunida talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus adabiyotlarni yaratish orqali ta'lim samaradorligini oshirish monitoringini olib borish.

2. Xorijiy mamlakatlar va Respublika ta'lim muassasalarida chet til o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirish tajribalarini o'rganish ularni umumlashtirish va ommalashtirish.

3. Talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirishda mutaxassis chiqaruvchi kafedralarning hamkorligi imkoniyatlaridan unumli foydalanish.

4. Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida chet til ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib mazkur oliy ta'lim talabalarning kasbiy malakalarini shakllantirish jarayoni monitoringini olib boorish.

5. Talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirishga yordam beruvchi omma-viy axborot vositalari (televideniye, radio,matbuot , internet) sahifalarida chet tilda ham bo'lajak kasbiga yo'naltirilgan materiallarni muntazam yoritilishiga erishish.

6.Nofilologik oliy o'quv yurtlarida chet tildan ta'lim beruvchi o'qituvchilar chet til o'qitish/o'rgatishning maqsadi va mazmunidan kelib chiqib, ta'limni tashkil-lashtirishi hamda bu borada talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirishga imkon beruvchi, ta'lim spetsifikasiga ko'ra, alohida (o'qituvchilar uchun)ilmiy amaliy ham-korlik, (seminar,xalqaro konferensiyalarni yo'lga qo'yish.

7.Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida chet til ta'limida talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirishga imkon beruvchi amaliy mashgulotlarni va tadbirlarni amalga oshirilishiga e'tiborni qaratish, shuningdek "Parlez-vous français?" yoki "Siz fransuz tilini bilasizmi?" kabi mavzular asosida ta'lim muassasi miqyosida, fakultetlararo, kurslararo, guruhlararo musobaqalarni tashkillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.01. 2020.Ped.P.26.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

АТАДЖАНОВА ШАХНОЗ АББАСОВНА

**ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ СТУ-
ДЕНТОВ В НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ**
(на примере французского языка)

13.00.01 – Теория педагогики. История педагогических учений

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована комиссии в Высшей аттестационной комиссии за B2022.1.DSc/Ped15

Диссертация выполнена при Ташкентском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации размешен на веб-сайте Научного совета (www.ter-su.uz) и в Информационном образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz) на трех (узбекском, русском и английском (резюме)) языках.

Научный консультант: **Абдуллаева Барно Сайфутдиновна**
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Хакимова Муҳаббат Файзиевна**
доктор педагогических наук, профессор

Якубов Жамолидин Абдувалиевич
доктор филологических наук, профессор

Жуманазаров Умид Умирзокович
доктор педагогических наук, доцент

Ведущая организация: **Коканский государственный педагогический институт**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2023 года в _____ часов на заседании Научного совета. DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 при Ташкентском государственном педагогическом университете (Адрес: 100011, город Ташкент, улица Бунёдкор, дом №27). Тел.: (99871) 276-79-11; факс: (99871) 276-80-86; Web-site: www.tdpu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного педагогического университета (зарегистрирована за №_____). (Адрес: 100011, город Ташкент, Бунедкор, дом №27). Тел.: (99871) 276-79-11; факс: (99871) 276-80-86

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2023 года.

(реестр протокол рассылки № _____ от _____ 2023 года).

З.Н.Мамаражабова
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.п.н.,
профессор

Р.Г.Исянов
Секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
к.п.н., доцент

С.С.Булатов
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.п.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В высших учебных заведениях мира внедряются модели совершенствования содержания и качества образования в высших учебных заведениях. Ведётся системная работа по внедрению новых моделей формирования речевых навыков у студентов, совершенствованию навыков поиска информации с целью овладения достаточным набором знаний для общения на иностранном языке на профессиональном уровне, а также использованию инновационных методов преподавания, подхода к образовательному процессу, расширения возможностей педагогического, психологического и дидактического усвоения будущими специалистами.

В мировых образовательных и научно исследовательских учреждениях проводятся научные исследования по развитию общекультурных знаний, умений и компетенций студентов нефилологических вузов в США, России, Германии, Франции, Голландии, Бельгии, Швейцарии, Южной Кореи, Китае и как одно из ведущих средств межнационального общения и межгосударственных отношений проводятся исследования по доведению изучения иностранного языка до уровня международных стандартов. Также проводятся научные исследования по использованию соответствующих стратегий в построении и интерпретации текстов, ориентированных на области речевых компетенций, а также совершенствовании процессов овладения четырьмя основными речевыми видами деятельности, такими как чтение, письмо, аудирование и говорение.

В последние годы в нашей республике создаются нормативные основы, усовершенствования инновационной деятельности, эффективные механизмы внедрения научно-инновационных достижений и организовано изучение иностранных языков в том числе английского, французского, испанского, китайского. В качестве важных приоритетных задач указаны «внедрение международных образовательных стандартов, содействие научным исследованиям и оценке качества преподавания и тем самым повышение качества и эффективности деятельности высших учебных заведений».¹ В обновлённом Узбекистане расширяются возможности доставки современных кадров, которые мыслят по-новому, способствуют быстрому развитию экономики, обладают конкурентоспособными универсальными компетенциями, могут применять их в своей деятельности.

Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года ПФ-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» и ПФ-6108 от 6 ноября 2020 года «О мерах по развитию образования и науки в новый период развития Узбекистана»; ПП-4623 от 27 февраля 2020 «О мерах по дальнейшему развитию сферы педагогического образования», от 19 мая 2021 года «О мерах по качественному выводу деятельности по популяризации иностранных языков в Республике Узбекистан на новый уровень», ПП-5117 из задач указанных

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года №УП-1947 «О стратегии действия по дальнейшему развитию Республики Узбекистан»/Сборник правовых документов Республики Узбекистан, 20.08.2018, №33.Пункт 4.4

в постановлении Кабинета Министров от 11 августа 2017 года № 610 «О мерах по дальнейшему повышению качества преподавания иностранных языков» служит для обеспечения выполнения поставленных задач.

Соответствие научно-исследовательской работы приоритетам развития науки и техники Республики.

Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики 1. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном, развитии информированного общества и демократического государства, формировании системы инновационных идей и способов их реализации».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.¹

Научные исследования, посвящённые развитию профессиональных навыков студентов нефилологических вузов, проводится ведущими мировыми научными центрами и высшими учебными заведениями, в том числе Université de Poitiers (Франция), Центром повышения педагогической квалификации на базе Манчестерского университета (Англия), Массачусетский технологический институт (США), Фрайбургский университет (Германия), Белфилдский педагогический университет (Германия), Ассоциация образовательных коммуникаций и технологий-АЕСТ(США), Чунанский университет, Санкт-Петербург, Московский государственный педагогический университет(Россия), Узбекистан проводимые в НИИ педагогических наук (Узбекистан). Ряд научных результатов получен в результате научных исследований, проводимых в мире по развитию профессиональных навыков будущих специалистов в системе высшего образования. В частности, совершенствовались организационно-стратегические механизмы международного сотрудничества в области разработки технологий развития профессиональных навыков студентов (Ассоциация образовательных коммуникаций и технологий- АЕСТ); создана организационная структура развития профессиональных навыков будущих специалистов (Центр повышения педагогической квалификации на базе Манчестерского университета); разработаны проектно-конструктивные технологии повышения квалификации студентов ((Национальный университет Шонбук-Южная Корея); профессионально-личностные. Разработана система педагогического развития будущих учителей (Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук).

Ведущие научные центры проводят исследования по следующим приоритетным направлениям: эффективное использование игр в развитии профессиональной устной речи студентов и общем развитии их языковых навыков (Французский альянс); (центр английского языка); развивать англоцентриче-

¹ Canale M, Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second languages teaching and testing / M.Canale, M. Swain// Applied Linguistics. – 1980- № 1 –P. 1-47; D.Coste, B.North, J.Garniture. Cadre Européen Commun de référence pour les langues: Apprendre, Enseigner, Évaluer: Unité des politiques linguistiques // Conseil de l'Europe/ - Chapitre 6 / - Strasbourg, 2001. Disponible en ligne: http://www.coe.int/t/dg4/Linguistic/Source/CEFR_FR.PDF. B. Professional competence and the initial and continuing education of NSW TAFE teachers. Sydney: Research Centre. 1995. C.18. <https://files.eric.ed.gov/fulltext/ed391017.pdf>; T.Hutchinson, A. Waters English for specific purposes. A learning-centered approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. –183p.

ский подход, помогающий изучать культуру этой страны в процессе изучения языка и направлять их к логическому пониманию мира; эффективно использовать игры в развитии профессиональной устной речи учащихся и их языковые навыки, обеспечивающие эффективность комплексного развития (Французский альянс); (центр английского языка); Помимо изучения культуры этой страны в процессе языкового образования развиваются англоцентрический подход, служащий для направления образовательной цели на логическое осмысление мира (Оксфордский университет).

Степень изученности проблемы. Проблема интенсификации образования и использования современных педагогических технологий в образовательном процессе высших учебных заведений освещены в научных трудах С.Абдуллаева Н.Н. Азизходжаева, В.И.Андрянова, Р.Х.Джураев, Р.Г.Исянов, исследование З.К.Исмоиловой, Н.А.Муслимовым, О.Толиповым. Развитие обучения иностранным языкам в профессиональные навыки будущих специалистов на основе международных требований. А.Абдуазизов, З.Р.Абдужаббарова, Л.Т.Ахмедова, Г.Бокиева, Д.Д.Джалалов, Ф.Икрамханова, Г.Т.Махкамова, С.Мисиров, Ф.Рашидова, Х.Сайназаров, Т.К.Саттаров, Ж.А.Якубов¹ был объектом исследования.

Методологические исследования иноязычного образования ученых СНГ Н.Д.Галскова, М.В.Ляховицкий, Г.И.Рогова, Р.К.Миньяр-Белоручев, К.И.Саломатов, Е.Н.Соловова, Л.В.Шчерба, педагогико-психологические ас-

¹ **Abdullayeva b.S.**, Fanlarnaro aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlardagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolida) :Ped.fan.d-ri ..dis.Avtoref.-T.,2004.; **Азизходжаева Н.Н.** Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т., 2003. – 174 б. **Андрянова В.И.** К постановке проблемы. Взаимообусловленность личности педагога и обучающегося: Учебное пособие // Формирование личности обучающегося в условиях инновационных технологий / Под общ. ред. проф. Р.Х. Джураева; отв. ред. проф. В.И.Андрянова. Ташкент, 2009. – 488 с.; **Джураев Р.Х.** Ведущие тенденции образования в XXI веке // Uzluksiz ta'lim. –Toshkent.–2008.–№6. –С.35-41. [URL:<http://rpedagogy.ru/journal/article/1327/>]; **Isyanov R.G** va b. Oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish texnologiyalari. Monografiya. -Toshkent, 2011. 72 b; **Исмаилова З.К.**Талабаларнинг касбий-педагогик малакаларини шакллантириш: Пед. фан. ном. ... дис. – Т., 2000. -130 б.; **Muslimov N.A.** Kasb ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dokt. ... dis. –T., 2007. – 305 b.; **Tolipov O'.**Q. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. T-2004. Dis -272 bet.;**Абдуазизов А.А.**, Зализняк А. М., Щитка Н. Н Учебное пособие для студентов филологических факультетов Ташкент- 2001; **Абдужаббарова З.Р.** Касб- хунар коллежлари ўқувчиларига инглиз тилида кўшимча матнлар ўқитиш технологияси . Пед. фан. ном. ... дис. – Т.: ТДПУ, 2010. – 179 б.; **Ахмедова Л.Т.**Роль и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов. –Т.: Фан ва технология. -2009. 159 с;**Бакиева Г.** Современная концепция узбекской речевой культуры Междисциплинарный научный журнал «Общество и инновации» Выпуск 1 № 2, 2020.; **Jalolov J.J.** Chet til oqitish metodikasi.-T.: Oqituvchi, 2012. – 432 b.; **Икрамханова Ф.И.** Инглиз тилидан коммуникатив –когнитив корректив курс назарияси ва амалиёти (нолисоний олий ўқув юртлари мисолида): Пед. фан. ном. ... дис. – Т.: ТДПУ, 2012. – 198 б.;

Махкамова Г.Т. «Формирование межкультурной компетенции студентов филологического ВУЗА (английский язык)» Дис. ... док.пед.наук. –Т.: УзГУМЯ, 2011.; **Мисиров С.** Касб-хунар коллежларида инглиз тили ўқитишнинг лингводидактик асослари: Пед. фан. ном. ... дис. – Т.: ЎзДЖТУ, 2007. – 179 б.; **Рашидова Ф.М.** Ўзбекистон узлуksиз таълим тизимида CEFRни татбиқ этишнинг концептуал методик асосларини такомиллаштириш (инглиз тили мисолида) Автореферат пед.фан. доктори (DSc). –Т.,2017.; **Сайназаров Х.** Общее и частное в методике обучения иностранным языкам // Тезисы докладов и сообщений Республиканской научно –методической конференции по теории и методике преподавания иностранных языков в средних школах, высших и средних педагогических заведениях. – Т., 1980. – С. 196-197.; **Саттаров Т.К.**Мутахассислик бўйича амалий машғулотларда бўлажак чет тили муаллимнинг касбий-услуги малакаларини шакллантириш. (инглиз тили материалида): Пед. фан. докт. ... дис. – Т.: ЎзДЖТУ, 2000. – 421 б.; **Хошимова Д.Р.** “Талабаларда инглиз тилидаги хиссий-экспрессив нутқни мнемоник база асосида тезкор ўстириш методикаси” Диссертация (2021й); **Якубов Ж.А.** Хозирги замон чет тили ўқитиш методикаси тамоиллари ва уларнинг замонавий таълим усуллари.//Чет тилларни ўқитиш ва ўрганиш муаммолари //ТДПУ . 2006 йил 30 май.;

